

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDGOGIKA INSTITUTI



"TASDIQLAYMAN"

Navoiy davlat pedagogika instituti

rektori

B.Sobirov

2023 y

KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA BAHOLASH
ME'ZONLARI

"Rangtasvir", "Kompozitsiya" fanlari

60112400 – Professional ta'lim: rangtasvir (turlar bo'yicha)

Navoiy 2023 y

Ushbu dastur dastur Navoiy davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2023 yil _____-sonli sonli majlisida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan dastur asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

t.f.n. **A.H.Abdullayev** Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası mudiri
S.A.Shovdirov Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

t.f.n. dost. **F.D.Shodiyev** Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi o'qituvchisi
E.H. Quldoshev Navoiy madaniyat va san'at maktabi Rang tasvir va qalamtasvir fani o'qituvchisi

KIRISH

60112400 – Professional ta'lim: rangtasvir (turlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qitiladigan fanlarning dolzarbligi, jamiyatni demokratlashtirish va O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda mo'ljallangan 5 ustivor yo'nalishlari bo'yicha "Harakatlar strategiya"sining 4-yo'nalish "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" tamoyillari asosida isloh qilishdagi ahamiyati va o'rni ochib beriladi.

"Rangtasvir", "Kompozitsiya" fanlari bo'yicha tuzilgan ushbu sinov dasturi DTS, malaka talablari asosida ishlab chiqilgan. Respublikamizda badiiy ta'lim islohatlarini yanada chuqurlashtirish, malakali mutaxassislar, rangtasvirchi rassom kadrlarini tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantiruvchi shuningdek, iqtidorli ijodkor rassom, ko'nikmalarini o'zida namoyon qiluvchi va ushbu sohaga qiziqish uyg'ota oluvchi, o'z yo'nalishini topishda mazkur fanlar katta ahamiyatga ega.

1. Fanning maqsad va vazifalari.

"Rangtasvir", "Kompozitsiya" fanlarini o'rganishdan maqsad abituriyentlarga turli rangtasvirlarning kompozitsion yechimini topish borasida bilim berish hamda rangtasvir, kompozitsiyalarning har tomonlama chizish usullarini o'rgatishga muvofiq. Rangtasvir, kompozitsiya fanlarining vazifasi zamon talabiga qarab, ijodkor rassomlar, rassom bezakchilar va boshqa malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashdan iborat.

2. Abiturient bilimiga qo'yiladigan talablar.

1. Rangtasvir fanidan "Odam portretini" rangli bo'yoqlar yordamida ishlanadi. "Odam portretini" qo'yilgan modelni ishlashda ranglar orqali uning tashqi ko'rinishiga, holatiga hamda yuzning anatomik tuzilishiga e'tibor qilishi. Bundan tashqari portretning plastik yechimiga hamda uning xarakterlarini ochib berishga harakat qilishi, ranglar orqali tuslarga ajratish, issiq va sovuq ranglarga e'tibor qilishi hamda ranglar uyg'unligini saqlagan holda, rangtasvirda ketma-ketlikka rioya etishidan iboratdir. Abiturientlar topshiriqni hajmi 40x60 bo'lgan planshetga akvarel, guash, tempera tarshon, vatmanda bajarishi mumkin.

2. Kompozitsiya fanidan abituriyent topshiriqni ashyoda ishlashni erkin tanlaydi. Berilgan mavzu bo'yicha bajaradi. Kompozitsiya g'oyasi, mazmuni, mohiyati mutaxassislikka xosligi, kompozitsiya yechimini mavzu asosida topilganligi, badiiy va g'oyaviy ifodada chizmatasvir va ranglar vositasidan foydalanish darajasi, shakl va obrazlar plastik yechimini topilganligi, kompozitsion vazifasidagi asar chuqurligining perspektiv yechimi, kompozitsiya markazining ifodali topilganligi, mavzuning mazmuni va g'oyasini ochib berishda koloritdan foydalanilishi, kompozitsiyada mazmun, g'oya-fikrning yoritilishi va tugallanish darajasi kabi masalalarini yoritib berish talab etiladi. Abituriyentlar topshiriqni xajmi 40x60 bo'lgan planshetga bajarishi kerak.

2022-2023 o'quv yili qabulida 60112400 – Professional ta'lim: rangtasvir (turlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qishga kiruvchi abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarni quyidagi fanlar bo'yicha topshiradilar.

| | Fan nomi | Imtihon balli |
|----|-----------------|----------------------|
| 1. | Rangtasvir | 78 |
| 2. | Kompozitsiya | 78 |
| | Jami | 156 |

**“Odam portretini” bajarish ijodiy imtihoni bo'yicha “Rangtasvir” faniga
ajratilgan vaqt**

| Fanining nomi | Topshiriqlar | Soat |
|----------------------|------------------------------|-------------|
| Rangtasvir | Odam portreti qo'llari bilan | 3 soat |

Abituriyent topshiriqni, akvarel, guash, tempera tarshon, vatmanda ishlaydi.

Rangtasvir 78 ball Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi.

| | Baholash mezonlari | To'liq javob uchun ball |
|-----|--|--------------------------------|
| 1. | Naturaning kompozitsion joylashuvi | 0-7 gacha |
| 2. | Proporsiyalarni to'g'ri topilishi | 0-7 gacha |
| 3. | Rakurs va fazoviy holatining ishlanish darajasi | 0-7 gacha |
| 4. | Ranglar bilan ishlash jarayonida yorug'-soyalarning bir-biriga mutanosibligi | 0-7 gacha |
| 5. | To'q va och tusalarning to'g'ri topilganlik darajasi | 0-7 gacha |
| 6. | Issiq va sovuq ranglarning uyg'unlashuv darajasi | 0-7 gacha |
| 7. | Naturani ranglar orqali atrof muhit bilan uzviy bog'langanligi | 0-9 gacha |
| 8. | Ranglarning o'zaro mutanosibligi va yaxlitligi darajasi | 0-9 gacha |
| 9. | Ranglarni perespektivadan o'zgarish holati | 0-9 gacha |
| 10. | Rangtasvirning tugallanish darajasi | 0-9 gacha |

“Kompozitsiya” fani Berilgan mavzu ijodiy imtihon bo'yicha “Kompozitsiya” faniga ajratilgan vaqt

| Fanining nomi | Topshiriqlar | Berilgan vaqt |
|----------------------|---------------------|----------------------|
| Kompozitsiya | Berilgan mavzu | 3 soat |

Abituriyent topshiriqni, ashyoda ishlashni erkin tanlaydi.

**Kompozitsiya 78 ball ijodiy (kasbiy) imtihonda abituriyent tomonidan
bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi.
Berilgan mavzu bo'yicha maksimal 78 ball**

| | Baholash mezonlari | To'liq javob uchun ball |
|-----|---|--------------------------------|
| 1. | Berilgan kompozitsiya ishlanadigan sathga qog'ozni to'g'ri topilganligi | 0-7 gacha |
| 2. | Kompozitsiya mavzu jihatdan original topilganligi | 0-7 gacha |
| 3. | Asarning kompozitsion g'oyaviy mazmuni | 0-7 gacha |
| 4. | Kompozitsiya g'oyasi, mazmuni, mohiyati mutaxassislikka xosligi | 0-7 gacha |
| 5. | Badiiy va g'oyaviy ifodada ranglardan to'g'ri foydalanish | 0-7 gacha |
| 6. | Asar qahramonining obrazini plastik yechim orqali topish | 0-7 gacha |
| 7. | Tasvirning ta'lim yo'nalishiga mosligi | 0-9 gacha |
| 8. | Kompozitsiya markazini to'g'ri topilganligi | 0-9 gacha |
| 9. | Mavzuning mazmuni, ma'nosi, hamda ranglar uyg'unligi | 0-9 gacha |
| 10. | Ishlanish mahorati va uning tugallanish darajasi | 0-9 gacha |

3. Kasbiy (Ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

60112400 – Professional ta'lim: rangtasvir (turlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishlariga hujjat topshirgan abituriyentlar jadval asosida belgilangan kunlarda (astronomik 3 soat) vaqt davomida rangtasvir fanidan "Odam portretini" va kompozitsiyadan berilgan mavzu asosida bajaradilar. Ijodiy imtihonlar **9⁰⁰** dan **12⁰⁰** gacha va **13⁰⁰** dan **16⁰⁰** gacha davom etadi. Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar asosida abituriyentlardan iborat bo'lib ijodiy imtihon guruhlar bo'yicha o'tkaziladi. Ijodiy kasbiy imtihonlar maxsus o'quv qurollari bilan jihozlangan o'quv ijodiy ustaxonalarda o'tkaziladi.

1. Rangtasvir. Badiiy akademik maktab an'analari asosida odam portretini issiq sovuq ranglardan to'g'ri foydalanish, naturani joylashtirish jarayonida atrof muhit inobatga olinishi kerak bo'ladi. Naturani akvarel, guash, temperada issiq

sovuq ranglar yordamida natura tasvirlanadi.

2. Kompozitsiya fanidan abituriyent topshiriqni ashyoda ishlashni erkin tanlaydi. Berilgan mavzu bo'yicha bajarishi kerak bo'ladi.

Abituriyentlar ijodiy ishlarini baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Rangtasvir fani bo'yicha jami 78 ball, har bir mezonga to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, maksimal 78 ball.

Kompozitsiya fani bo'yicha 78 ball. Berilgan mavzuga har bir mezonga to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, maksimal 78 ball.

Har bir fan bo'yicha sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolari 3 nafarni tashkil etadi va ular (mutaxassislik) kafedra professor-o'qituvchilar tarkibidan jalb etiladi.

3. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalar bo'yicha "Apellyatsiya" tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash ha'yatiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalari bo'yicha tushgan norozilik (apellyatsiya) arizalari oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan 24 soat davomida ko'rib chiqiladi. Murojaat mazmunida faqat o'zining ijodiy ishlari va ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

USLUBIY KO'RSATMALARDAN NAMUNALAR

RANGTASVIR FANI 60112400 – Professional ta'lim: rangtasvir (turlar bo'yicha)

Vazifa: Portret qo'llari bilan.

Namunalar:



KOMPOZISIYA FANI 60112400 – Professional ta'lim: rangtasvir (turlar bo'yicha)

Vazifa: Berilgan mavzu

Namunalar:



